## “NKMK” AJ Transformatsiya boshqarmasining vazifalari va lavozimlariga qo‘yiladigan talablar

| | Tarkibiy bo‘linmalarning nomi, lavozim nomi | Vazifalar va talablar |
|---|---|---|
| **1.** | **Operatsion samaradorlikni oshirish bo‘limi** | |
| 1. | Konchilik ishlari bo‘yicha muhandis-tahlilchi | **Vazifalari:**<br>• Blokli geologik modeldan qo‘llangan holda konlarda qazib olish ishlarini optimallashtirish;<br>• Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati zahiralarini aniqlash va konlarni qazib olish bosqichidagi “nuqsonlarni”ni bartaraf etish maqsadida asosiy texnologik jarayonlar monitoringini tashkil etish;<br>• Korxonada tejamkor ishlab chiqarishni joriy etishda faol ishtirok etish;<br>• Operatsion yaxshilanish loyihalarini qidirish, hisoblash va amalga oshirish;<br>• Biznes maqsadlariga erishish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan jarayonlarni optimallashtirish bo‘yicha loyihalarda mutaxassis sifatida bevosita ishtirok etish.<br>**Talablar:**<br>• Oliy texnik ma’lumot;<br>• Shu kabi lavozimda kamida 5 yillik ish staji;<br>• Shaxsiy (personal) kompyuterda ishonchli foydalanuvchi, AutoCAD Micromine, Datamine yoki shunga o‘xshash dasturlarda ishlash ko‘nikmalari;<br>• Ochiq kon ishlarini rejalashtirish/loyihalash bo‘yicha tajriba shart;<br>• Kon ishlarini rivojlantirishning yillik rejasini tayyorlash, kon ishlarining elementlarini loyihalash, kon ishlarining planogrammalarini tayyorlash tajribasi.<br>• Kon ishlarining ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish tajribasi, transformatsiya loyihalarida ishtirok etish. |
| 3 | Texnologiya bo‘yicha muhandis-tahlilchi | **Vazifalari:** |

| | | |
|---|---|---|
| | | • Mineral xom ashyoni qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish dasturini shakllantirish, optimallashtirish va korxonaning ilmiy-texnikaviy faoliyatini yillik rejalashtirish;<br>• Korxonaning asosiy va yordamchi ishlab chiqarish faoliyatini operatsion (qisqa va o‘rta muddatli) rejalashtirish, ish faoliyatini nazorat qilish va hisobot berish.<br>• Loyihalarni rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilmiy-tadqiqot ishlari va loyiha-qidiruv ishlari rejasini ishlab chiqish;<br>• PFS (dastlabki TIA), FS (TIA), LH, IHlarni – ularning to‘liqligi, dolzarbligi va muvofiqligi bo‘yicha ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlar paketini to‘plashni va ekspertiza qilishni tashkil etish;<br>• Taklif etilayotgan innovatsiyalar, tashabbuslarning texnologik ko‘rsatkichlarining dastlabki hisob-kitoblarini o‘tkazish va verifikatsiyalash;<br>• Texnologiya va texnologik kommunikatsiyalar bo‘limlari uchun loyiha va ishchi hujjatlarni verifikatsiyalash va validatsiyalash (audit).<br>• Texnologik reglamentlar va yo‘riqnomalar bilan ishlash.<br>• Korxonaning turdosh bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.<br>• Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va joriy etish.<br>• Ma’danning boyitilishi bo‘yicha tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish.<br>**Talablar:**<br>• Oliy texnik ma’lumot;<br>• Konchilik sanoati sohasida kamida 5 yillik ish tajribasi;<br>• Kon-boyitish faoliyatida texnologik jarayonlarni modellashtirish bo‘yicha ishonchli ko‘nikmalar;<br>• Stressga bardoshlilik, jamoada ishlash qobiliyati. |
| 4 | Mexanika va uskunalar bo‘yicha muhandis-tahlilchi | **Vazifalari:**<br>• Samaradorligi past bo‘lgan asbob-uskunalarni va unumdorligi yuqori bo‘lgan uskunalarni tahlil qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etilishini boshqarish.<br>• Rejadan tashqari ta’mirlash va uskunalarning to‘xtalishi xarajatlarini |

| | | |
|---|---|---|
| | | kamaytirish hisobiga ishlab chiqarishni optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, butlovchi qismlar, uzellar va mexanizmlarni ta’mirlash va tiklashning yangi progressiv usullarini qo‘llash asosida ta’mirlash va ularni saqlash xarajatlarini kamaytirish;<br>• Uskunalarning to‘g‘ri ishlashi bo‘yicha taklifni ishlab chiqish va joriy etish.<br>• Loyiha hujjatlarini va ishchi hujjatlarni ishlab chiqish va bajarishga doir standartlar, me’yoriy hujjatlar, texnik shartlar va boshqa farmoyish tusiga ega materiallarni bilish.<br>• Transformatsiya boshqarmasining faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan biznes maqsadlari va vazifalariga muvofiq doimiy takomillashtirish jarayonlarida ishtirok etish.<br>**Talablar:**<br>• Konchilik tarmoqlarida transformatsiya loyihalarida ish tajribasi.<br>• Oliy texnik ma’lumot.<br>• Mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5 yillik ish staji.<br>• Qoidalar va standartlarni mukammal bilish.<br>• Sohaga oid kompyuter dasturlarni bilish. |
| **2.** | **Strategik rivojlanish bo‘limi** | |
| 1 | Strategik rivojlanish bo‘limi boshlig‘i | **Vazifalari:**<br>• Strategik va biznesni rejalashtirish va boshqarish jarayonlarini amalga oshirishni tashkiliy va tahliliy ta’minlash.<br>• Strategik rejalashtirish jarayonini tashkil etish va ta’minlash (strategik rejalashtirish bo‘yicha sessiyalar o‘tkazish, strategik maqsadlarni ishlab chiqish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish, strategik maqsadlarga erishish yo‘llarini ishlab chiqish).<br>• Asosiy strategik rivojlanish hujjatlarini shakllantirishni ta’minlash.<br>• Strategik maqsadlarga erishish ustidan nazoratni ta’minlash.<br>• Strategiyani qayta ko‘rib chiqish: tayyorlash, strategik muammolarni aniqlash.<br>• Strategiyani amalga oshirish va strategiyani baholash.<br>• Qiyosiy baholash va tahlil: ilg‘or tajribalar bo‘yicha bilim almashish, |

| | | |
|---|---|---|
| | | o‘qitish va o‘zgarishlarni boshqarish, kompaniya xodimlarini ilg‘or xalqaro tajribalar asosida strategik rejalashtirish asoslariga o‘rgatish.<br>**Talablar:**<br>• Oliy iqtisodiy, texnik ma’lumot.<br>• Strategik rejalashtirish bo‘yicha xalqaro tajriba, konchilik sanoati kompaniyalaridagi tajriba ustuvor hisoblanadi.<br>• Yirik kompaniyalarda boshqaruv tajribasi, shu jumladan konchilik sohasida kamida 3 yillik xalqaro tajribasi.<br>• Ajoyib muloqot qobiliyatlari, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash.<br>• Ko‘p vazifani bajarish, tashkilotchilik qobiliyati.<br>• Ofis dasturlarini, matematik modellashtirishni mukammal bilish. |
| **3.** | **Inson kapitalini rivojlantirish bo‘limi** | |
| 2. | Personalni  tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha bosh mutaxassis | **Vazifalari:**<br>• Personalni o‘qitish va rivojlantirish dasturiga tegishli qismida korxonani transformatsiya qilish dasturiga muvofiq HR strategiyasini joriy etish.<br>• Treninglarni tashkil etish vositalarini o‘zlashtirish.<br>• Korporativ kurslarni tashkil etish, individual o‘quv dasturini tanlash. Treninglar samaradorligini baholash.<br>• Xodimlarning kasbiy mahoratini baholash va ularni  rivojlantirish.<br>• Tashqi provayderlar bilan ishlash.<br>• Personalni baholash vositalarini joriy etish: Assessment center.<br>• Kompaniyada kompetensiyalar modelini ishlab chiqish.<br>**Talablar:**<br>• Iqtisodiyot va moliya, psixologiya, sotsiologiya, HR sohalari bo‘yicha oliy ma’lumot.<br>• Tashkiliy rivojlanish va personalni o‘qitish masalalari bo‘yicha tajriba.<br>• A’lo darajadagi muloqot qobiliyatlari va o‘quv dasturlarini amalga oshirishda muvaffaqiyatli tajriba.<br>• Yetakchi xalqaro kompaniyalarda HR kurslaridan o‘tish bo‘yicha sertifikatlarning mavjudligi ma’qullanadi. |

| | | |
|---|---|---|
| 3. | Kompensatsiyalar va imtiyozlarni joriy etish bo‘yicha bosh mutaxassis | **Vazifalari:**<br>• Samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi, ularni tahlil qilish va hisobga olish usullari bilan bog‘liq holda HR strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etish;<br>• Yangi kompensatsiya sxemalari va siyosatlarini amalga oshirish bo‘yicha loyiha guruhining ishida ishtirok etish. Kompensatsiya paketlarini tuzishning zamonaviy tamoyillari va texnologiyalarini, moddiy (qo‘llanilayotgan tizim samaradorligini tahlil qilish, lavozimlarni ranjirlash, ish haqini belgilash, ish haqining o‘zgaruvchan qismini hisoblash sxemasini ishlab chiqish) va nomoddiy rag‘batlantirish sxemasini hamda ularni korxona ehtiyojlariga moslashtirish usullarini joriy etish;<br>• Ish haqi tizimlarini, bonus dasturlarini, kompensatsiya va imtiyozlar tizimini o‘rganish, shu jumladan raqobat tahlili, ularning mehnat bozori talablariga muvofiqligini tahlil qilish.<br>• Mehnat jarayonlarini va ish vaqtidan foydalanish o‘rganish;<br>• Rag‘batlantirish va to‘lovlar siyosatiga doir mahalliy normativ hujjatlarni ishlab chiqish;<br>• Ish haqi sharhlari, to‘lov modellari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash va kuzatish, ular bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish.<br>• Byudjet ijrosini tahlil qilish (shu jumladan faktorli); ROI ni (xodimlarga investitsiyalarning samaradorligi) hisoblash;<br>• Xodimlarni baholash, attestatsiyadan o‘tkazishda ishtirok etish.<br>**Talablar:**<br>• Moliya va iqtisod, statistika, psixologiya va sotsiologiya, personalni boshqarish va boshqalar bo‘yicha oliy ma’lumot.<br>• O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligini, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarni, mehnatga haq to‘lash va mehnatni rag‘batlantirishni tartibga solish, tashkil etish masalalariga oid uslubiy materiallarni bilish;<br>• Personalni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalarini bilish;<br>• Personalni rag‘batlantirish tizimini joriy etish tajribasi, KPI .<br>• Analitik fikrlash qobiliyati;<br>• Shaxsiy (personal) kompyuterda, Excel, 1C (ish haqi va kadrlar), Word, |

| | | |
|---|---|---|
| | | Power Point ishlashda (ilg‘or foydalanuvchi darajasida)yaxshi ko‘nikmalar bo‘lishi shart. |
| **4.** | **Investitsion loyihalarni boshqarish bo‘limi** | |
| 1. | Bo‘lim boshlig‘i | **Vazifalari:**<br>• Istiqbolli rivojlanish rejalarini ishlab chiqish (uzoq muddatli rivojlanish rejasi);<br>• Loyihalarni boshqarish tartib-taomillarini ishlab chiqishni, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashni hamda loyiha hujjatlari aylanishini tashkil etish.<br>• Korxonani rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli investitsiya dasturlarini shakllantirish.<br>• Investitsion va moliyaviy qarorlarni tayyorlash, biznes - rejalashtirish, loyiha va xavflarni boshqarish, raqamli biznesning raqamli transformatsiyasini amalga oshirish;<br>• Loyihani boshqarishning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish.<br>• Yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish. Investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash.<br>• Investitsion loyihalarni monitoring qilish, yakunlash va nazorat qilish.<br>• Hokimiyat organlari, rivojlanish institutlari, korxonaning tarkibiy bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.<br>**Talablar:**<br>• Oliy (moliyaviy-iqtisodiy) ma’lumot, loyiha boshqaruvi sohasida oliy ma’lumot (ma’qullanadi).<br>• Sanoat kompaniyalarida investitsiyalarni boshqarish, investisiya dasturlarini shakllantirish, investisiya dasturlarini amalga oshirishni tashkil etish sohasida kamida 3 yillik ish tajribasi.<br>• Boshqaruv ko‘nikmalari va jamoada ishlash qobiliyati. |
| 2 | Loyihachi | **Vazifalari:**<br>• Konchilik ishi sohasida loyihalash ishlarini bajarish.<br>• Pudratchi tashkilotlar tomonidan bajariladigan kon ishlariga tegishli loyiha ishlarini ko‘rib chiqish va tekshirish. |

| | | |
|---|---|---|
| | | • Muayyan obyektni loyihalash jarayonida kon ishlariga tegishli standartlar va me’yoriy hujjatlar talablarining bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash.<br>• Loyiha-qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun texnik shartlarni ishlab chiqishda, texnik yechimlarni kelishishda ishtirok etish.<br>• Konchilik korxonalarini loyihalash va ulardan foydalanishda ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribani hisobga olgan holda fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlarini loyihalarini ishlab chiqishda joriy etish.<br>• Loyihaning bosh muhandisi bilan birgalikda loyihalash ishlari hajmini, loyiha hujjatlarini sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlar ro‘yxatini aniqlash;<br>• Mualliflik nazoratini amalga oshirish va ishlab chiqarishni o‘zlashtirishda texnik yordam ko‘rsatish va ishtirok etish.<br>• Hisobot hujjatlarini tuzish.<br>**Talablar:**<br>• Oliy texnik ma’lumot (konchilik ishi).<br>• Konchilik tarmog‘ida 5 yillik tajribaga ega bo‘lish ma’qullanadi.<br>• Ishchanlik, e’tiborlik, mas’uliyatlilik, muloqotliligik, stressga bardoshlik, jamoada ishlash qobiliyati.<br>• Shaxsiy (personal) kompyuterda, MS Word, Excel, PowerPoint, AutoCAD, Datamine ishlashda tajribali foydalanuvchi. |
| 3 | Biznes-tahlilchisi | **Vazifalari:**<br>• Loyiha samaradorligini iqtisodiy tahlil qilish (zararsizlik nuqtasini, loyihaning rentabelligini, investitsiyalarni tahlil qilish).<br>• Tovar bozorlarini o‘rganish, tahlil qilish.<br>• Mahsulotlar narxlarining o‘zgarish sur’atlarini taqqoslash, prognozlarni va ularning loyihani amalga oshirishga ta’sirini tahlil qilish.<br>• Investitsiya loyihalarni moliyalashtirish tuzilmasini tahlil qilish.<br>**Talablar:**<br>• Oliy iqtisodiy ma’lumot |

| | | |
|---|---|---|
| | | • Investitsion loyihalarni tahlil qilish bo‘yicha kamida 5 yillik tajriba, konchilik tarmog‘ida ish tajribasi ma’qullanadi.<br>• Analitik ko‘nikmalar, ma’lumotlar massivi bilan ishlash qobiliyati.<br>• Modellar, grafiklar, taqdimotlar tuzish. |
| 4 | Tavakkalchiliklarni baholash bo‘yicha bosh mutaxassis | **Vazifalari** :<br>• Konchilik loyihalarini amalga oshirishda tavakkalchiliklar reyestrini tuzish va joriy etish;<br>• O‘zgarishlarning loyihalarni amalga oshirishga ta’sirini tahlil qilish.<br>• Loyiha xavflarini boshqarish rejasini ishlab chiqish.<br>• Loyihaning boshqa ishtirokchilaridan kelib tushadigan tavakkalchiliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarini to‘plash va tahlil qilish.<br>• Tavakkalchiliklar reestrida identifikatsiya qilish, tahlil qilish, qarshi choralar ko‘rishni rejalashtirish, monitoring va nazorat qilish natijalarini umumlashtirib, uning yangilab borilishini ta’minlash.<br>• Qarshi choralash ko‘rish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladigan tavakkalchiliklarni ahamiyatiga ko‘ra ranjirlash hamda tavakkalchiliklarni boshqarish rejasiga muvofiq zarur harakatlarni tashabbus qilish.<br>• Loyihani boshqarish metodologiyasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nomuvofiqliklar va ushbu nomuvofiqliklar tufayli yuzaga keladigan tavakkalchiliklar bo‘yicha oldini oluvchi / tuzatuvchi harakatlarni tashabbus qilish va monitoring qilish va / yoki tuzatishni amalga oshirish.<br>• Tavakkalchiliklarga qarshi choralar ko‘rish choralari maqsadlariga erishish tahlilini o‘tkazish.<br>• Amalga oshgan tavakkalchiliklarni aniqlash va tahlil qilish.<br>• Loyiha tavakkalchiliklari bo‘yicha hisobotlarni tuzish.<br>• Loyiha tavakkalchiliklarini boshqarish jarayonining samaradorligi va natijadorligini tahlil qilish va baholash, tegishli hisobotni tuzish.<br>• Jarayon ishtirokchilarini uslubiy yordam bilan ta’minlash.<br>• Loyiha tavakkalchiliklarini boshqarishda metodologiyaga rioya etilishini nazorat qilish. |

| | | |
|---|---|---|
| | | • Loyiha jamoasining metodologiyasi talab qiladigan barcha harakatlarni amalga oshirish.<br>**Talablar:**<br>• Oliy (iqtisodiy, texnik) ma'lumot;<br>• Yirik investitsiya loyihalarida investitsiya tavakkalchiliklarini baholashda kamida 5 yillik ishtirok etish tajribasi;<br>• MS Office-ning ishonchli foydalanuvchisi darajasida bilim,<br>• Loyiha faoliyati, injiniring, qurilish, konchilik tarmog'i sohasida tajriba ma'qullanadi. |
| **5.** | **Barqaror rivojlanish va atrof-muhit bo'limi (ESG)** | |
| 1. | Bo'lim boshlig'i | **Vazifalari:**<br>• Barqaror rivojlanish strategiyasi bo'limlarini ishlab chiqish va yangilashda ishtirok etish;<br>• Barqaror rivojlanish bo'yicha yillik hisobotning bo'limlarini ishlab chiqish va yangilashda ishtirok etish;<br>• ESG-hisobotlarni tayyorlash;<br>• Korxonada xavfsiz odob-ahloq madaniyatini shakllantirish, xavfsiz ishlab chiqarishni joriy etish, jarohat olish holatlarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish;<br>• Harakatlar rejasini ishlab chiqish va o'qitish, xavfsiz ishlab chiqarish tartib-taomillari bo'yicha o'qitish samaradorligini baholash.<br>• Xavfsiz ishlab chiqarish va mehnat muhofazasi tizimini joriy etish bo'yicha barcha tarkibiy bo'linmalarda MM vaXT bo'limlari bilan o'zaro hamkorlik qilish.<br>• Korporativ madaniyat va kuchli ijtimoiy siyosatni shakllantirish.<br>• Korporativ ta'lim olish uchun har yillik byudjetlarni tayyorlash.<br>• ESG mavzulariga oid korporativ muloqot bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;<br>• Barqaror rivojlanish doirasida, shuningdek, strategik tashabbuslar bo'yicha ishlar doirasida strategik baholash va uzoq muddatli prognozlash ishlarida |

| | | |
|---|---|---|
| | | ishtirok etish;<br>• Konchilik tarmoqlarida barqaror rivojlanish sohasidagi eng ilg‘or tajribalarni, shuningdek, trendlarni tahlil qilish;<br>ESG reyting agentliklari, regulyator, professional jamoalar bilan o‘zaro hamkorlik qilish.<br>**Talablar:**<br>• Oliy ma’lumot (moliyaviy, iqtisodiy, boshqaruv yoki marketing, ekologiya).<br>• ESG sohasida 3 yillik tajriba.<br>• Konchilik tarmoqlarida ESG loyihalarini amaliy joriy etish tajribasi ma’qullanadi.<br>• ESG strategiyasini ishlab chiqish tajribasi.<br>• Shaxsiy (personal) kompyuterda, Microsoft Office - da ishlashda ishonchli foydalanuvchi. |
| 2. | Sanoat va ekologik xavfsizlik tamoyillarini joriy etish va ularga rioya qilish bo‘yicha bosh mutaxassis | **Vazifalari:**<br>• Amaldagi qonunchilik talablariga va xalqaro amaliyotga muvofiq sanoat, ekologik va sanitariya xavfsizligi sohasida ishlab chiqarish nazorati tizimini yaratish;<br>• Sanoat ekologik nazoratining unifikatsiyalangan dasturini, ekologiya, mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo‘yicha normativ-huquqiy bazani barcha ishlab chiqarish obyektlarida qo‘llash orqali amalga oshirish.<br>• Ekologiya, sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va sanitariya sohasida zarur tashkiliy-farmoyish hujjatlarni (yo‘riqnomalar, nizomlar, reglamentlar va boshqalar) xalqaro amaliyotga muvofiq ishlab chiqish;<br>• Baholash davomida aniqlangan yuqori xavfli loyihalar va/yoki muayyan ekologik va ijtimoiy masalalar bo‘yicha ekologik va ijtimoiy ekspertiza o‘tkazish uchun tashqi maslahatchilarni jalb qilishni boshqarish.<br>• ESG kun tartibi sohasidagi tamoyillar va siyosatlarni amalga oshirish bo‘yicha xalqaro maslahatchilar bilan o‘zaro hamkorlik qilish.<br>• Kompaniyada ISO 14001 xalqaro standarti asosida atrof-muhit menejmenti tizimini joriy qilish, qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish.<br>• Korxonada mehnat muhofazasi tizimini yaratish bo‘yicha ish rejasini tuzish |

| | | |
|---|---|---|
| | | va amalga oshirish: o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va hokazo;<br>• Korxona rahbarlari, mutaxassislari va ishchilarini atrof-muhitni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo‘yicha ichki o‘qitish;<br>• Mavjud mahsulot xavfsizligi tizimiga mehnat muhofazasi va sog‘liqni saqlashni boshqarish tizimi, atrof-muhitni boshqarish tamoyillarini joriy etish;<br>• Sanoat va ekologik xavfsizlik tamoyillariga rioya etilishini nazorat qilish.<br>**Talablar:**<br>• Ma’lumot: oliy (moliyaviy, iqtisodiy, boshqaruv yoki marketing)<br>• Sanoat va ekologik xavfsizlik sohasida kamida 3 yillik tajriba<br>• Konchilik tarmoqlarida ESG loyihalarini amaliy amalga oshirish tajribasi<br>• sanoat va ekologik xavfsizlikka rioya qilish siyosati va tamoyillarini ishlab chiqish tajribasi<br>• Asosiy ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni (chiqindilarni boshqarish, iqlim kun tartibi, barqaror rivojlanish bo‘yicha tahliliy hisobotlarni tayyorlash) tushunish.<br>• O‘quitishni o‘tkazish malakasi<br>• Shaxsiy (personal) kompyuterda, Microsoft Office - da ishlashda ishonchli foydalanuvchi.<br>• Ingliz tilini bilish darajasi advanced darajadan past emas. Sertifikatga ega bo‘lish ma’qullanadi. |
| 3 | Korporativ va ijtimoiy siyosatlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha bosh mutaxassis (ESG) | **Vazifalari:**<br>• Tashkiliy madaniyatni shakllantirish, joriy etish va o‘zgartirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini shakllantirish.<br>• Gender tengligi masalalarini hisobga olgan holda korporativ madaniyat va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlash.<br>• Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish sohasida kompaniyaning ijtimoiy dasturlarini, ta’lim loyihalarini ishlab chiqish konsepsiyasini yaratish. |

| | | |
|---|---|---|
| | | • Kompaniyaning turli biznes-jarayonlarida barqaror rivojlanish tamoyillarining joriy etilishini nazorat qilish;<br>• Ixtisoslashtirilgan tanlovlarda ishtirok etish uchun arizalar va barqaror rivojlanish reytinglarini tayyorlash;<br>• Konchilik tarmoqlariga e’tibor qaratgan holda eng yaxshi korporativ boshqaruv amaliyotlarini monitoring qilish va joriy etish.<br>• Ijtimoiy mas’uliyat masalalari bo‘yicha korxona faoliyati samaradorligini monitoring qilish.<br>• Ijtimoiy va korporativ siyosat bo‘yicha hisobotlarni yangilash. Ijtimoiy siyosat bo‘limlar bo‘yicha barqaror rivojlanishning yillik hisobotlarini har yili nashr etish.<br>• Korxonada korporativ boshqaruv tamoyillarini o‘qitish va joriy etish bo‘yicha ishlar.<br>• Korporativ boshqaruv va ijtimoiy siyosat masalalari bo‘yicha tashqi treninglar.<br><br>**Talablar:**<br>• Oliy ma’lumot (iqtisodiy, personalni boshqarish sohasida, psixologiya va boshqalar).<br>• Asosiy ijtimoiy va iqtisodiy omillarni, gender muvozanati masalalarini tushunish.<br>• ESG omillariga ta’sir qiluvchi qonunchilik asoslarini bilish.<br>• Tizimli fikrlash, kuchli odob-axloqiy vakolatlar.<br>• Transformatsion loyihalarni amalga oshirish tajribasi<br>• Fasilitatsiya va jamoada ishlash ko‘nikmalari.<br>• Muloqot qobiliyatlari va hamkorlar bilan munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati<br>• Ijtimoiy va korporativ barqarorlik ustida ishlashga yuqori qiziqish. |